

**ILMOQDA CHOYNAK UCHUN G'ILOF TO'QISH  
TEXNOLOGIYASI**

*Shohista Mamasoliyeva, Hanifa Ro'ziqulova*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

***Annotatsiya.** Ilmoqda to'qish piltakashda to'qishdan ko'ra soddaroq jarayon bo'lib, to'qilgan mahsulotlar juda chiroyli, bejirim va jozibali chiqadi. Bugungi kunda u yosh tanlamaydigan zamonaviy va foydali mashg'ulotga aylanib ulgurgan.*

*Ilmoqda to'qish ajurli naqshlar, nozik to'rlar va relefli naqshlar asosida issiq kiyimlar, nozik yozgi kiyimlar to'qish bilan birga sovg'a uchun ham munosib buyumlar to'qish mumkin. Maqolada ana shunday sovg'abop buyumlardan biri bo'lgan choynak uchun g'ilof to'qish texnologiyasi haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** ilmoq, sxema, shartli belgilar, havoyi halqa, nakidsiz ustun, nakidli ustun.*

Ilmoqda to'qish bu eng sevimli qo'l mehnati texnikasi turlaridan biridir. Dastlab, bu texnika faqat erkaklar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa-da, ammo vaqt o'tishi bilan asta-sekin ayollar qo'lga o'tgan. Ilmoqda to'qish texnikasi XVI asrda Angliya va Fransiyada paydo bo'lgan degan farazlar mavjud. Ammo hind qabilalari ham ushbu san'atning barcha sirlariga ega bo'lganligini ko'rsatadigan ishonchli dalillar ham mavjud bo'lib, bu haqda 20-asrning boshlarida ularning qadimiy asarlari namunalarida ma'lumotlar topilgan. Ilmiy farazlar orasida bu hunar o'z ildizlarini Xitoy kashtachiligining qadimiy shaklidan olgan, - degan fikrlar ham yo'q emas.

Ilmoqda to'qish uchun paxta, zig'ir, ipak, jun va sintetik tolali iplar yoki mato, trikotajdan olingan tasmalar, shuningdek, turli xil shnurlardan foydalaniladi.

Ilmoqda to'qish uchun kuchli yigirilgan iplardan foydalanmaganlik ma'qul, chunki undan to'qilgan polotno buralib ketadi. Ipning to'qish uchun yaroqliligini tekshirish uchun uni kalavadan bo'shatib, ikki bukib, osilgan holatda ushlab turish lozim. Ipning yo'g'onligi bir tekis, bir xil va yetarlicha mustahkam bo'lishi lozim. Chunki bir xil bo'lmagan yo'g'onlikdagi ip tayyorlanayotgan buyumning tashqi ko'rinishi va sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq, shunday maxsus iplar ham borki, ularning butun uzunligi bo'yicha tugunchalar va yo'g'onliklar joylashgan bo'ladi. Bunday iplardan to'qilgan buyumlar o'zgacha ko'rinishga va kreativlikka ega bo'ladi. Jun tolasidan olingan iplardan asosan issiq kiyimlarni, paxta tolali iplardan esa asosan yozlik kiyimlarni to'qishda foydalaniladi.

Ilmoqlar metal, plastmassa, yog'och va suyakdan tayyorlanadi. Ular qisqa (12-15 sm) va uzun (35-45 sm), yo'g'on va ingichka (№1-6) bo'ladi. Eng qulay ilmoqlar dastasi yog'och yoki plastmassadan tayyorlangan, shuningdek yassilangan qismi bo'lgan ilmoqlardir. Ilmoqning raqami uning asosiy qismi bo'lgan bosh qismining yo'g'onligi bo'yicha aniqlanadi. Agar ilmoq boshining qalinligi 3 mm bo'lsa, demak, ilmoqning raqami № 3 bo'ladi. To'quvchida turli xil qalinlikdagi iplar bilan ishlash uchun № 1 dan № 6 gacha bo'lgan ilmoqlar to'plami bo'lishi lozim.

Ilmoq tanlashda uning boshiga alohida e'tibor berish lozim. Juda ham o'tkir bosh qo'lning ko'rsatkichi barmog'iga shikast etkazadi, to'mtoq bosh esa halqalarni cho'zadi va to'qishni qiyinlashtiradi. Ilmoqlar har doim qutida saqlanadi, chunki tashqi mexanik ta'sirlar (tirnalishlar, egilishlar va h.k.) ularni ishga yaroqsiz holga keltiradi.

Ipni yaxshi ushlab, uni ajratmaslik uchun ilmoq iplardan 1,5-2 baravar ingichka bo'lishi lozim. Jun ipdan tayyorlangan mahsulotlar yo'g'on ilmoqlar (№2-6) bilan to'qiladi. Nozik metall ilmoqlar (№ 0,5-1,5) bilan ajurli buyumlar (to'r va salfetkalar) to'qiladi.

Yuqorida ilmoqda to'qish texnikasi haqida qisqacha tanishib o'tdik, endi esa uning yordamida ajoyib buyum – choynak uchuh g'ilof to'qiyimiz. Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshiramiz:

1-qator. 80 ta havoyi halqadan tashkil topgan zanjir to'qiyimiz (sxemadagi shartli belgisi –○). 80-halqani 1-halqa bilan birlashtiramiz (sxemadagi shartli belgisi – +).

2-qator. Bu qator 3 ta havoyi halqa to'qish bilan boshlanadi. 2-halqadan boshlab, har bir halqadan bittadan ustun to'qiyimiz (sxemadagi shartli belgisi – T̄). Demak, bizda 79 ta ustun hosil bo'ladi. 79-ustun 2-qator boshlanishida to'qilgan 3 ta havoyi halqaning 3-halqasi bilan birlashtiriladi.

3-qator. Bu qator ham 3 ta havoyi halqa to'qish bilan boshlanadi. Keyingi ishlar esa har bir ustundan 2 ta o'ng va ikkita chap relefli ustunlar to'qish bilan davom ettiriladi (sxemadagi shartli belgisi: o'ng relefli ustun – T̄, chap relefli ustun – T̄).

4-5-6-qatorlar xuddi shu usulda to'qiladi (ya'ni 4-5 sm to'qima bir xil yo'sinda to'qiladi).

7-qator. Bu qator ham xuddi shu usulda to'qiladi, faqat qator oxirigacha emas, yarmiga yetganda ortga qaytib, o'ng ustundan o'ng relefli ustun, chap ustundan chap relefli ustun to'qiladi.

Shu yo'sinda 12 sm to'qima hosil bo'lguncha to'qiladi. Undan so'ng, to'qimaning yarmi to'qilmagan qismi ham shu tartibda to'qiladi.

Keyingi jarayonlar esa xuddi to'qimaning boshidagidek aylanasiga to'qiladi (4-5 sm).

Asosiy to'qilma to'qin bo'linganidan so'ng, bogich to'qiladi. Buning uchun havoyi halqalardan tashkil topgan 30-35 sm li zanjir to'qib olinadi. Zanjirning ikkinchi qatori nakidsiz ustun bilan to'qib chiqiladi. Hosil bo'lgan bog'ich to'qimaning yuqori qismida 2 sm oralatib o'tkazib chiqiladi va choynakka kiydirilgandan so'ng, tortib bog'lab qo'yiladi.

Choynak g'ilofining estetik qiymatini oshirish uchun uni ilmoq yordamida to'qilgan turli xil gullar bilan bezash mumkin. Choynak g'ilofining tayyor ko'rinishi 1-rasmda keltirildi.



1-rasm. Choynak g'ilofining tayyor ko'rinishi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ilmoqda to'qishni bugungi kunda nafaqat hunarmandlar o'rtasida balki, talaba va o'quvchi yoshlar o'rtasida ham keng yoyish, ommalashtirish orqali ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, shuningdek qo'shimcha daromad manbaiga aylantirish imkoni mavjud.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mamasoliyeva Sh.L. Xalq hunarmandchiligi. O'quv qo'llanma. SamDU nashriyoti 2020 yil.
2. Faxriddin o'g'li, F. M. Exploring the specific innovations of computer graphics in drawing science. // "Научный Фокус", 2024 yil 1(10).
3. Faxriddin o'g'li, F. M. Computer graphics in the sphere of drawing details: enhancing creativity and precision. // "Innovation in the modern education system", 2024 yil 4(37).
4. Faxriddin o'g'li, F. M. Dunyo ta'lim uslublaridagi sara durdonalar. // "Научный Фокус", 2023 yil 1(7).
5. Faxriddin o'g'li, F. M. Fin ta'lim tizimining global o'qitishda tutgan o'rni. // "Innovative developments and research in education", 2024 yil 3(26).
6. Q.M.Abdullayeva, G.Ibragimova, N.S.Gaipova. Qo'lda va mashinada to'qish. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2007

7. M.A.Maksumova, Q.M.Abdullayeva, D.A.Norbutayeva. Qo`lda to`qish. Metodik qo`llanma. Toshkent, 2014.